



YANGI O'ZBEKISTON: UCHINCHI RENESSANS SARI

Abdukarimova Roxila Abdurayimovna

Talaba, Far'gona davlat universiteti, Farg'ona shahri

Abdukarimovarohila3@gmail.com

Annotatsiya. *Yangi O'zbekistonning iqtisodiyotini barqaror ta'minlashda yangi shakldagi xo'jalik yuritish usullarini joriy etish iqtisodiy zaruratdir. Jahon amaliyotida o'zini ijobiy jihatlari bilan o'zini oqlagan xo'jalik yuritishning –klaster usulidan O'zbekiston iqtisodiyotida, xususan, qishloq xo'jaligi, yengil sanoat va qayta ishlash tarmoqlarida qo'llanila boshlandi. Bu borada birmuncha tajribalarga erishilgan bo'lsada, biroq, ularni tashkiliy, moliyaviy faoliyati bilan bog'liq muammolar mavjuddir. Mazkur maqolada aynan O'zbekistonda faoliyat ko'rsatuvchi klasterlarning iqtisodiy mohiyati, ularni faoliyatiga to'sqinlik qilayotgan muammolar hamda ularning yechimlari bilan bog'liq ayrim masalalar yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *Yangi O'zbekiston, xo'jalik yuritish usuli, klaster, qayta ishlash, tashkiliy, moliyaviy, klaster nazariyalari, imtiyoz, preferentsiya, huquqiy asos, barqaror iqtisodiyot.*

O'zbekiston zamini qadimda ikki buyuk uyg'onish davriga – Birinchi (ma'rifiy – IX-XII asrlar) va Ikkinchi (Temuriylar – XIV-XV asrlar) Renessansga beshik bo'lgan. Hozirgi vaqtda mamlakatimizda yana bir muhim Uyg'onish jarayoni kechmoqda. Shuning uchun “Yangi O'zbekiston” va “Uchinchi Renessans” so'zlari bugungi hayotimizda o'zaro uyg'un va hamohang bo'lib yangramoqda, xalqimizni ulug' maqsadlar sari ruhlantirmoqda.

Sharq Renessansi haqida ko'plab asarlar yozilgan. Ularda o'sha davrlarda Sharqda Islom ilmlari bilan bir qatorda ijtimoiy, tabiiy fanlar ham rivojlangani qayd etilgan. Bu haqda shveysariyalik mashhur sharqshunos Adam Metsning “Musulmon Renessansi” asaridan ma'lumotlarni olish mumkin. Mazkur asar IX-X asrlarda musulmon sharqida yuz bergan madaniy rivojlanishning tarixiga bag'ishlangan. Masalan, unda qayd etilishicha, “Keyingi o'zgarishlarning sababi shunda ediki, huquqshunoslik ilohiyotdan ajralib chiqib, olimlar guruhi bir-biriga dushmanlik ruhida bo'lgan ikki guruhga bo'linib ketdi, ya'ni faqihlar (fuqiho) va olimlar (ulamo)”. Birinchi guruh atrofiga bir parcha non topish umidida bo'lgan juda ko'p talabalar to'plandi, negaki, kimki huquq va urf-odatlarini o'qib olsa, ular yordamida qozilik va voizlik joyini egallashi mumkin edi. Bu to'g'rida o'zining yaxshi iboralari bilan mashhur bo'lgan al-Johid shunday deydi: “Biz o'z tajribamizdan shunga ishonamizki, kimki ellik yil davomida hadislarni o'rgansa va Qur'onni sharhlashni bilsa ham u faqihlar jumlasidan hisoblanadi va qozilik lavozimiga erisha olmaydi. Bunga u shu vaqtdagina erisha oladiki, agar u Abu Hanifaning va unga o'xshashlarning amaliy faqihlik iboralarini yoddan o'rganib olsa va



u bunga bir-ikki yilda erisha oladi. Ko'p o'tmay bunday odamni shahar yoki hatto viloyat qozisi etib tayinlashlari mumkin.

XIX asrning oxiri XX asrning boshida Turkiston madaniyati qator talantli olim, sayyox, shoir, pedagog, jurnalistlarni etishtirib chiqardi, ular xalqimizning umumiy madaniyati rivojlanishiga juda katta ta'sir ko'rsatdilar.

Yevropa madaniyati yangiliklari, Yaqin Sharq mamlakatlaridagi o'zgarishlar Turkiston madaniyatida yerli xalqning mustamlakachilik siyosati, kamsitilishiga qarshi ma'rifatchilik harakatini kuchaytirib yubordi. U asosan xalqni yangi madaniyat, ma'rifatga chaqirishga, millatni uyg'otishga, yangilanayotgan ma'naviyatni egallashga yo'naltirilgan edi. Asta-sekin ma'rifatchilikdan jadidchilik o'sib chiqdi va u ma'lum darajada siyosiy masalalarni olg'a sura boshladi. Yangi ta'lim-tarbiya, yangi maktab, yangi maorif, uni boshqarish, madaniy targ'ibot, tashkilotchilik masalalari asosiy o'ringa ko'tarildi. Yangiliklarga asoslangan holda rus va eski feodal maorifdan farq qiluvchi fikr-g'oyalar oldinga surildi, ular erli matbuot, turli kitoblar orqali keng targ'ib etildi. Bu madaniyatdagi mustamlakachilikka qarshi mustaqillikka xalq ongini oshirish, o'z ahvolini yaxshilashga intilishning ko'rinishlaridan edi

Bugungi kunda O'zbekiston demokratik o'zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanib bormoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan qabul qilingan 2017- 2021 yillarda O'zbekiston Pespublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirish maqsadida belgilangan ustuvor yo'nalishlarda shu jihatdan alohida kasb etadi. O'zbekistonda agrar sohani isloh qilishda, unga bozor mexanizmlari va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish borasida izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Buning yaqol isboti sifatida prezidentimiz tashabbusi ostida qabul qilinayotgan klaster sohasiga oid qaror va farmonlar bunga misol bo'la oladi. Xususan, klaster usuli yo'lga qo'yishda, bu esa bozor tamoyillariga o'tishda, sohada davlat aralashuvini keskin kamaytirishda, reja ortidan quvish va majburiy mehnat holatlariga butunlay chek qo'yishda muhim omil bo'lib kelmoqda.

Birgina qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 23 oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida" PF-5853-son farmoni ijrosini ta'minlash, meva-sabzavot va uzumchilik sohasida yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish, eksport hajmini oshirish, foydalanishdan chiqqan va lalmi yerlarni o'zlashtirish, paxta, g'alladan qisqartirilayotgan maydonlarga eksportbop qishloq xo'jaligi ekinlari ekishni ko'paytirish, shuningdek, bog', tokzor va issiqxonalar imkoniyatlaridan samarali foydalanishni yo'lga qo'yildi.1 Buning natijasida oxir-oqibat hosildorlik ham, daromad ham oshmoqda. Paxta-to'qimachilik klasterlari faoliyatini yanada takomillashtirish, ularning qishloq xo'jaligi yerlaridan samarali foydalanishdagi roli va mas'uliyatini oshirish, mahsulot yetishtiruvchi va uni qayta ishlovchilarning manfaatdorligini ta'minlashga doir bozor tamoyillarini keng joriy etish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 16-



noyabrdagi “Paxta –to‘qimachilik klasterlari faoliyatini tartibga solish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-14 son farmoni qabul qilindi. Farmonga muvofiq uning dolzarbligi paxta-to‘qimachilik klasterlari tomonidan joylarda bosqichma-bosqich zamonaviy qishloq xo‘jaligi texnikalari parkini yaratib, sohani mexanizatsiya darajasini oshirib, yetishtirilgan hosilni chuqur qayta ishlashni yo‘lga qo‘yib, mahsulot yetishtirishda band bo‘lgan aholini sanoat va xizmat ko‘rsatish tarmoqlariga o‘tkazib, qolaversa, bu bo‘yicha bir qator ishlar amalga oshirish sanaladi.

Katta qiziqish va xayrixohlik bilan kutib olingan “Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot” bugun iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, ma‘naviy hayotimizga real ta‘sir ko‘rsatayotirmoqchi, degan savolga aniq javob berish ancha mushkul. Milliy g‘oyani jonlantirish uchun uni Uchinchi Renessans g‘oyasi bilan boyitish zarur. Faqat Uchinchi Renessansni amalga oshirib, biz ozod va obod Vatanda erkin va farovon hayotni barpo eta olamiz. Yoki, yana qulayrog‘i, Uchinchi Renessansga erishishni milliy g‘oyaning yangi ifodasi, deb e‘lon qilish maqsadga muvofiq. Milliy g‘oya joriy vazifalarni emas, balki strategik oliy maqsadni ifodalaydi. Shu ma‘noda Uchinchi Renessans g‘oyasi istiqbolga intilishga juda mos keladi. Mazkur g‘oyaning safarbarlik kuchi, umuman, mafkuraviy salohiyati juda yuqori. Ayni chog‘da o‘tmish tariximizning shonli sahifalari, buyuk ajdod-larimizning bunyodkorlik va ijodkorlik salohiyati bilan bog‘lanadi. Bizga mazkur tushuncha kimlarning vorislari ekanimizni eslatib turadi. Yangi Renessans yo‘lida xalqimiz turli mayda, vaqtinchalik masalalarga, guruhbozlik, mahalliychilik, ayirmachilik, mafkuraviy mutaassiblikning har xil ko‘rinishlariga chalg‘imasligi kerak. Tarix saboqlarini unutishga haqqimiz yo‘q. Yurtboshining “Men turli sinov va kurashlarda toblangan, iymon-irodasi mustahkam xalqimizning aql-zakovati va azmu shijoatiga ishonaman” degan murojaatlari har bir inson qalbini junbushga keltiradi. Chunki taraqqiyotning yangi bosqichiga qadam qo‘yilayotgani, yangi bir uyg‘onish – Uchinchi Renessans davri poydevorini yaratish bizning, har birimizning zimmamizda ekanligini bildiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2022-yil 20-dekabrda Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaati “Xalq so‘zi”, 2022-yil 21-dekabr
2. Murtazo Axmedovich Rahmatovning “Yangi O‘zbekiston Uchinchi Renessans ostonasida” T.: Zamin nashr” 2021, 212b
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi. Xalq so‘zi. 2020 yil 30 dekabr. №276. 2-bet.
4. Адам Мец. Мусульманский Ренессанс. Изд-во “Наука”. Главная редакция Восточной литературы. М., 1966, 144-145-бетлар.